

Xalq Disibniot registered version of TotalDocConverter

- Tog' etagidagi Xirvati qishlog'i atrofida suruv haydab yurgan cho'ponlar har kuni tunda bittadan qo'y g'oyib boiayotganini sezib qolishadi. Ma'lum bo'lishicha, suruvg'a ayiq oralagan ekan. Cho'ponlar o'g'rining adabini berib qo'yish niyatida kechasi gulxan yoqib, uni poylab o'tirishibdi. Bisotlarida bittagina pilta miltiq bor ekan. Nihoyat, ayiq ko'rinishibdi. Cho'ponlar shovqin ko'tarib, uni qo'rigitmoqchi bo'lishgan ekan, ayiq parvo qilmay to'g'ri bostirib kelaveribdi. Buni ko'rgan bir cho'pon shosha-pisha miltiqni olib, o'q uzmoqchi bo'lган ekan, piltasi o't olmabdi. Ayiq esa yaqinlashib qolibdi. Cho'ponlar miltiqni tashlab, tiraqaylab qochishibdi. Ayiq bemalol gulxanning oldiga kelibdi, keyin yerda yotgan miltiqni olib, tizzasiga bir urib sindiribdi. Shundan so'ng u bitta qo'yni burdalab, yenishga tushibdi. O'sha kezlar suruv tomonda tulki ham aylanishib qolgan ekan. Har kuni u ayiqning izidan borib, undan qolgan sarqitlarni pok-pokiza qilib tushirib ketar ekan. Shu kuni tulki yana paydo bo'libdi. Ayiq uni ko'rib qolibdi-da, bir parcha go'sht irg'itibdi. Tulki yaqin kelib, go'shtni olibdi. Ayiq yana tashlabdi. Lekin bu gal beriroqqa uloqtiribdi. Shu tariqa go'sht tashlab, tulkini yaqiniga keltiribdi-da, bir chang solib ushlab olibdi. Shundan keyin boy'a o'zi majaqlab tashlagan miltiqning sumbasini olib, obdan o'tda qizdiribdi-da, dahshatdan qotib qolgan cho'ponlarning ko'zi o'ngida uni tulkinining ketiga bosibdi. Bir necha marta buni takrorla-gach, oxiri tulki o'libdi. Ayiq: "Yegan qo'yimning haqi bu", deganday uning oiigini cho'ponlar pusib yotgan tomonga uloqtiribdi. Shu-shu bu ayiq mutlaqo ko'rinxay ketibdi.